

Gulnoza Bazarova

Guliston davlat pedagogika inistituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kattalar ta'limining xususiyatlari, ularning qiyosiy tahlili haqida so'z borgan. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim konsepsiyasi dolzarb bo'lib, yoshidan qat'iy nazar har bir shaxsning salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Ushbu maqolada kattalar ta'limini tashkil yetish shakllari haqida so'z borgan. Zamonaviy mutaxassis doimiy izlanishi, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni yegallash qobiliyatiga yega bo'lishi kerak. Ta'lim kattalarga o'zlari yashayotgan jamiyatni yaxshi tomonga o'zgartirishni tushunishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: andragoguka, kattalar ta'limi, *kattalar ta'limi, ta'lim shakllari*, o'ng yarim shar, chap yarim shar, tana

Miya to'g'risida ega bo'lgan ma'lumotlarimizning 95% keyingi 5-10 yil ichida aniqlangan. Izlanishlarning bu soxasi androgogika fani uchun muxim natijalar beradi. Sokratning ushbu so'zlari xali xam o'z kuchini yo'qotgani yo'q «inson qanchalik ko'p narsani bilsa, bilmagani undan ko'pligini faxmlay boshlaydi».

Miya biz uni o'rgatganimizdan ko'ra ko'proq narsaga o'rganishi mumkin. Bizda eng aqlli kishilar xam 1% kam bo'lgan miqdorda ishlatadigan juda katta potensial mavjud.

Oxirgi o'ttiz yil ichida olimlar bizning miyamiz tuzilishi va uni samarali ishlatish xaqida xayratlanarli darajada yangi ma'lumot olishdi. 1981 yilda Robert Sperry «Split Brain Theory» (miyaning ikki yarim sharlari nazariyasi) izlanishi uchun Nobel mukofotini oldi. Sperry konsepsiyasiga ko'ra miyaning ikki yarim sharlari turli funksilarga ega ekan. O'ng va chap yarim sharlar fikrlash xolatida turli xil jarayonlarga asosnadi.

O'ng yarim shar tananing chap qismini boshqaradi va noverbal, intuitiv, o'yinqaroq, xolistik (butun) ishlaydi. Ishlashning bu turi ko'pchilik maktablar tomonidan unchalik qo'llab-quvvatlanmaydi.

Chap yarim shar tananing o'ng qismini boshqaradi va analitik, verbal, va ratsional xolatda ishlaydi. Bizning ko'pchilik o'qitish konsepsiyalarimiz grek logikasidan kelib chiqadi va shuning uchun chap yarim shar tomonidan boshqariladiganlar o'qish va ishda qo'llab-quvvatlanadi.

Yarim sharlardan birining ustunligi

Axolining taxminan yarmisi fikr va xarakat vaqtida miyaning chap yarim sharini, axolining qolgan yarmisi o'ng yarim sharini ishlatadi.

Olimlar tekshirishlar davomida miyaning bir qismini ikkinchisidan ustunligi to'hrisida yakdil fikrga kelishmadi, lekin ko'pchilik odamlar miya yarmining bu

ustunligini yoshlik davrda shakllantirgan degan fikr yuzaga keladi, xuddi o'ng va chap qo'lda yozishni boshlaganlarga o'xshab. Shu bilan birgalikda o'ng va chap yarim sharlar faoliyati bir –birini to'ldirib turadi xamda u yoki bunisi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Tariximiz daho sanagan insonlar xar soxada o'z ishini ustalari bo'lishgan, va boshqalardan miyaning butunligicha ishlatilari ya'ni xam chap va o'ng qismi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishlari farqlanganlar. Ular yoshlik davrlaridayoq ma'lumotlarni qayta ishlash uchun miyaning ikkala qismini ishlata olganlar. Ular miyaning ikkala qismini teng qadrlaganlar va o'z foydalari uchun ularni birlashtirganlar. Miyaning ikki yarim shari doim rivojlanishi mumkin (99% xali ishlatilmagan potensial – imkoniyat).

Kattalarni o'qitish jarayonining farki

<i>Elementlar</i>	Pedagogika	Andragogika
O'qitish muxiti	<i>Formal ravishda</i> Samimiy emas Musobaka Ishonchning yetishmasligi Baxolash	Noformal Samimiy Xamkorlik Ikkitomonlama kullab-kuvvatlash Ishonch
Rejalashtirish	Ukituvchining javobgarligi	Umumiy javobgarlik trener va ishtirokchilarda
Talab kuyish	Ukituvchining javobgarligi	Trener va ishtirokchilar kizikishini kuzda tutgan xolda talab kuyiladi
Maksad va vazifalar	Ukituvchining javobgarligi	Trener va ishtirokchilar kizikishini kuzda tutgan xolda kuyiladi
O'qitish	Ukituvchi dastur asosida ukitadi	Vazivalarning xilma-xilligi (loyixali ukitish)
O'qitish uslublari	Butun sinf bilan va indivi-dual vazifalar ishlatiladi	Guruxlarda ishlashga yunal-tirilgan, mustakil ishlar, loyixaviy faoliyat va eksperimentlar
Baho	Ukituvchi baxolaydi. Norma va baxolarga asoslangan xolda	Trenerlar, ekspertlar va xamkasabalar baxosi va mezonlarga asoslangan xolda - ishtirokchining uzi baxolaydi

Kattalarni o'qitishga androgogik yondashuv

Prinsiplari:

- Odamda birinchi bo'lib fikrni rivojlantirish, keyin esa eslash qobiliyatini

- Oddiydan murakkab tomon
- Kattaning malakasini tan olish

1. mavzuga kirish

a) Ko‘prikcha

- Oldingi mavzuni qisqa eslab o‘tish va yangi mavzuga sekin ko‘chish

- Yangi mavzuning nomini aytib, ishtirokchilardan «Nima deb o‘ylaysizlar, bu mavzuning oldingisi bilan bo‘hliq tarafi bomi?» deb so‘rash

- Aniq-konkret savollar bilan mavzuni shakllantirish
- «falaj-shok savol»

- muammoli (qarma-qarshi) vaziyatni tasvirlab berish

b) Ishtirokchilar malakasi bilan bo‘lishish

- bu mavzu xaqida tasavvurlari qanaqa ekanligini so‘rash

- bu mavzuga daxldor qanday xodisa-voqealarga egalar

- xayotdan bir misolni tasvirlab berish (muammoli xolat, ishbilarmon o‘yin)

2. mavzu maqsadini ochib berish

a) mavzu bilan qisqa xolda tanishtirish

b) mavzu maqsadining mohiyatini tushunishga imkon berish

3. mavzu ustida ishlash

a) ayrim qismlarini tushuntirish

b) qismlar bir-birlari bilan qanday munosabatlarda ekanligini ishlab chiqish

v) tizimlangan mavzular

g) erishilgan darajada butun vaziyatni ko‘rib chiqish

d) birgalikdagi mashqlar (mavzu o‘zlashtirilganligini tekshirish)

4. mavzuni biriktirish

1. mustaqil ish

2. gurux bilan ishlash

5. odatiy savollar

«Mavzu o‘zlashtirilganmi yoki o‘zlashtirilmaganmi?»

1. Kimda qo‘shimcha savollar bor?

2. Anonim javobli tekshiruv savollari

3. «Sizda savolllar bormi? Agar bo‘lmasa, menda bor...»

6. «mavzuga kirish»

1. Kim «buni» o‘z so‘zlari gapirib bera oladi?

3. Sizning muloxazalaringiz

4. Kimda qo‘shimcha savollar bor?

5. Bu xaqida tasavvuringiz qanday?

savollar turi

- Ochiq savol. Savolning tuzilishi ko‘pgina turli javoblar olishga imkoniyat beradi.

- Yopiq savol. Shunday tuziladiki, javob xa yoki yo‘q ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

7. jarayon

a) Diskussiyani yuzaga keltirish

b) Aniq javob (aniq izoh)

v) Turli fikrlar, xulosalar

Katta yoshdagilarning ta'lim jarayoni uning barcha bosqichlarida: diagnostika, rejalashtirish, amalga oshirish, baholash va ma'lum darajada tuzatishda o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati sifatida tashkil etiladi. Ta'lim tushunchalari orqali kattalar o'z bilim va ko'nikmalarini yakka tartibda ishlashdan ko'ra qisqaroq vaqt ichida oshirishlari mumkin.